

## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY - IJTIMOIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Xalmatjanova Gulchexra Djurabaevna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, Jahon va mintaqal iqtisodiyoti kafedrasini dotsenti,  
Qoraboev Azizjon Abdurasul o'g'li,  
mustaqil izlanuvchi, Farg'onadavlat universiteti  
[gulchexra1777@mail.ru](mailto:gulchexra1777@mail.ru)  
+998 901621777

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy tomonidan taxlil qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi jamiyatda istiqbolli bozor munosabatlarini rivojlantirish, mulkdorlar jamiyatini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatida yangi, demokratik institutlarini barpo qilishning muhim shart-sharoitlari, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb eishi. xojalik yuritishni optimal usullaridan foydalanish, ragbatlantiish, tashabbuskorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish to'grisida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta korxonalar, kompleks rivojlanish, bozor konyunkturasi, ish o'rnlari, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, Ijtimoiy madaniyat, mahalliy resurslar.

### KIRISH

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rnlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlanish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Natijada so'nggi o'n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o'sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiyligi sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi.

"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturiga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlanish uchun yanada qulay biznes muhitni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ulami muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o'rtacha soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar molivaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi

va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'layotgan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o'tkazish taqiqlandi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tadbirkorlik tushunchalarining hozirgi ma'nosida XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ilk bor ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon qo'llagan edi. Uning fikricha, tadbirkor tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi kishidir. Shu boisdan u er va mehnat omilini iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boylik manbai deb bilgan. Keyinchalik, XVIII asrning oxiri va XIX asming boshida mashhur franuuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767- 1832) «Siyosiy iqtisod risolasi» kitobida (1803y.) tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarishning uch mumtoz omillari yer, kapital, mehnatning yaxlitligi deb ta'riflagan edi.

O'zbekiston olimlaridan Boltabayev M., Qosimova M., Ergashxodjayeva Sh., G'oyibnazarov B., Samadov A., Otajonov Sh. Asarlarida kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yynetkazib berish, yangi ish o'rinalarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslami ishlab chiqarishga safarbar etish; soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanishini tadqiq etgan. Yusupov M.A. Bozor segmentatsiyasi va tovarni bozorda pozitsiyalashtirish masalalari, shuningdek, tovar, narx, sotish va kommunikatsiya siyosatlari, raqobat va raqobatbardoshlik masalalari keng bayon etilgan.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqotlarimiz natijasida tadbirkor va iste'molchining o'zaro munosabatlarida tadbirkor faol subyekt kategoriyasiga kiradi. Iste'molchi esa bunda passiv rol o'ynaydi. Bu o'zaro munosabatlami tahlil qilishda iste'molchi tadbirkorlik jarayonining indikatori rolini bajaradi. Tadbirkor faoliyati predmetini tashkil etuvchi barcha narsa iste'molchining ijobiy bahosiga ega bo'lgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Bunda iste'molchi tomonidan tovarga baho beriladi va keyin u yoki bu tovami xarid qilishga tayyorligi aniqlanadi. Tadbirkor o'z faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishda iste'molchining kayfiyati, istagi, manfaatlarini hisobga olishi kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkor uchun iste'molchining manfaatlariga muvofiq harakat qilishdan boshqa iste'molchiga ta'sir qilishning yo'li yo'qdir. Ammo bu tadbirkor iste'molchining manfaatlariga muvofiq harakat qilishi kerakligini bildirmaydi. Tadbirkoming o'zi iste'molchining talabini shakllantirishi, yangi iste'mol ehtiyojlarini yaratishi (agar xaridor uchun zarur bo'lgan yangi tovar yaratilsa) mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizni barcha mintaqalarini kompleks rivojlantirish bugungi kundagi eng dolzARB mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Bunda barcha hududlarda rivojlangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish maqsadida ko‘plab qonun va qarorlar ishlab chiqilmoqda. Bulardan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son hamda “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi<sup>98</sup>.

Mazkur qarorlar doirasida keyingi besh yilda kichik va o‘rta korxonalar soni ikki baravar ko‘paydi. Ularda 10,5 million kishi ish bilan bandligi, bu esa jami mehnatga layoqatli aholining 74 foizini tashkil etadi. Iqtisodiyotning yarmidan ko‘pi, sanoat va eksportning uchdan bir qismi shu tarmoqqa to‘g‘ri keladi<sup>99</sup>.

Ularning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu sohalarni rivojlantirish uchun kompleks rivojlantirish zarur. Davlat tomonidan yaratilgan qulay sharoitlar va qo‘llab-quvvatlash dasturlari kichik biznesning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa muayyan sharoitlar optimallashtirish maqsadga muofiqdir. Iqtisodiy sharoit deganda quyidagilar belgilanadi: tovarga bo‘lgan extiyojga qarab talab va taklif; xaridor sotib olishi uchun tovarni sifatliyligi va xilma-xilligini mavjudligi; xaridor sotib olishi uchun moliyaviy darajasining yetarliyligi; ishchilarning maoshiga, ya’ni sotib olish imkoniyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi malakaviy va arzon ishchi o‘rnlari, ishchi kuchlarining ko‘pligi yoki yetarli esmasligi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy taraflama taxlil qilish muxumdir. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish jamiyatda isteqbolliy bozor munosabatlarini rivojlantirish, mulkdorlar jamiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatida yangi, demokratik institutlarini barpo qilishning muhim shart-sharoitlaridandir. Bundan tashqari iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv xojalik yuritishni optimal usullaridan foydalanibgina qolmay, ragbatlantiradi, tashabbuskorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantiradi. Kichik biznes va xusuiy tadbirkorlikni afzalliklari ko‘pligi bilan ajralib turadi.

- Bunda bozor konyunkturasiga tez moslashish
- Talabning o‘zgarishini tezilgash
- Faoliyatning bir turidan boshqasiga kam xarajat evaziga tezda moslashish
- Ixtisoslashuvni tezligi va boshqalar.

<sup>98</sup><https://lex.uz/docs/-6767101?ONDATE=01.01.2025>

<sup>99</sup><https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/19/small-business/>

Tadbirkorlik faoliyati uzoq yillar isteqbolli faoliyat yurutishi uchun samarali olib boorish uchun ma'lum bir ishchi muhit bo'lishi kerak. Mavjud muhit hududlararo miqyosida mujassamlashib, rivojlanish jarayonida ishbilarmonlik muhitini amalga oshirishni mujassamlashtiradi. Bu holda tadbirkorlik muhitini asosan quyidagi omillar: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro aloqadorligi natijasida amalga oshiriladi. Iqtisodiy sharoit eng muhum jihatlardan biri hisoblanadi. Bunda faoliyat yurutish davri, hajmi, sifati va boshqa ko'rsatkichlarini belgilashga mezoni bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy sharoitga deganda quyidagilar kiritiladi:

1. Tovarga bo'lgan talab va takliflarning holati.
2. Xaridor sotib olishi uchun tovar turlari va hajmining yetarliyligi.
3. Xaridor sotib olish imkoniyatini mavjudligi.
4. Ishchilarining maoshi.
5. Ishchi kuchlarining ortiqchaligi yoki yetishmovchiligi.
6. Pul resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatini barqarorligi.
7. Kiritilgan sarmoyadan olinayotgan daromad miqdori va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan iqtisodiy sharoitlarda mavjud bo'gan shart-sharoitga muoffiq ravishda kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik subyektlari rivojlanish jarayoni stabillashib boradi. Iqtisodiy sharoit kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik, balki barcha iqtisodiy yo'naliishlarga katta tasir ko'rsatadi. Hozirgi kunda respublikamizda iqtisodiy barqarorlikni yaxshilash maqsadida bir qancha loyixalar va rejalar amalga oshirilmoqda. Bulardan qayta tiklanuvchi energetika va transport infratuzilmasi yo'naliishida ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar uchun moliyaviy yordamlar berilib, imtiyozli kredit va lizing dasturlari amalga oshirilmoqda. Inflyatsiya ko'rsatkichini pasaytirish maqsad qilingan holda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash rejalarini amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari STEM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yo'naliishlarini rivojlanmoqda. Kasb-hunar ta'limi yo'naliishlari jadal suratda rivojlanmoqda. Respublikamizni barcha hududlarida STEM ta'limi kompleks rivojlanmoqda. O'rta maxsus ta'lim maktablari va boshqa ta'lim muassasalarida STEM fanlari chuqur o'rganiladi. Bunday jarayonlar iqtisodiy sharoitni yaxshilashga zamin yaratmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlarning dastlabki yillarida kichik biznes va o'rta biznesning o'rni yuqori bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, bu ko'rsatkich Germaniya, Yaponiya, Italiya, AQSh va boshqa mamlakatlarni statistikasida o'z isbotini topgan. Ularning ijtimoiy hayotida kichik biznesning ro'li yuqoriligi bilan ajralib turadi. Kichik biznes va xusuiy tadbirkorligida ijtimoiy jihatdan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1-jadval<sup>100</sup>

1.	Ish o'rinlarini yaratish	Kichik biznes yangi ish o'rinalarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda kichik biznes sohasida bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining ortib borishi. Bu ish o'rirlari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki aholi farovonligini oshiradi.
2	Ijtimoiy barqarorlik	Kichik biznes ijtimoiy muammolarni hal qilishda yordam beradi. Ular mahalliy jamoalarda iqtisodiy faoliytkni rag'batlanadiradi va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga hissa qo'shadi. Kichik tadbirkorlik faoliyati aholi daromadlarini oshirishga yordam beradi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi
3.	Ijtimoiy madaniyatni rivojlantirish	Kichik biznes tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Odamlar o'z mulkiga egalik qilish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa jamoalarda ijodkorlik va tashabbuskorlik ruhini oshiradi.
4.	Mahalliy resurslardan foydalanish	Kichik biznes mahalliy resurslarni samarali ishlatish orqali iqtisodiyotni rivojlantiradi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar bilan hamkorlik qilish orqali jamiyatda iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi.
5	Ijtimoiy mas'uliyat:	Kichik bizneslar ko'pincha ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, bu esa ularning jamoat hayotidagi rolini kuchaytiradi. Tadbirkorlar mahalliy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etib, jamoalarga yordam berish uchun turli dasturlar va loyihalarni amalga oshirishadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy taraqqiyotda muhim omil hisoblanadi. Ular nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham yuqori hissa qo'shadi. Shuning uchun kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilishi zarur, bu esa jamiyatning barcha qatlamlariga foya keltiradi. Jamiyatlarni ijtimoiy quyi sinifidan tortib yuqori sinfiga qadar kichik biznesni o'rni yuqori bo'lishiga sabab katta mablag' talab etilmaydi, bozor sharoitiga tez moslashadi, har qanday qatlamda yakka yoki kompleks ravishda rivojlana olishi bilan ajralib turadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari tadbirkorlar va ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, qoidalar va normativ-huquqiy hujjalardan iboratdir. Ushbu asoslар tadbirkorlik muhitini shakllantiradi va uning samarali ishlashini ta'minlaydi.

2-jadval<sup>101</sup>

1.	Huquqiy kafolatlar	Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi: O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda erkinlikni ta'minlaydi. Bu
----	--------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

<sup>100</sup>Muallif tomonidan ishlangan.<sup>101</sup>Mualliftomonidanishlangan.

		qonun tadbirkorlarga o‘z faoliyatlarini mustaqil ravishda yuritish imkonini beradi. Xususiy mulk huquqi: O‘zbekiston Konstitutsiyasida xususiy mulk himoya qilinadi, bu esa tadbirkorlarning mulk huquqlarini mustahkamlaydi.
2.	Qonunchilik bazasi	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi qonunchilik bazasi quyidagi asosiy hujjatlardan iborat: Fuqarolik kodeksi: Ushbu kodeksda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari belgilangan <sup>102</sup> . Kodeksda shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar ko‘rsatilgan. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi: Kichik biznes subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayoni soddalashtirilgan bo‘lib, bu jarayonni tezlashtirish maqsadida davlat boji stavkasi qisqartirilgan
3.	Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish	Soliq qonunchiligi: Tadbirkorlar uchun soliq yuklarini belgilovchi qonunlar, shuningdek, soliq imtiyozlari va preferensiyalar <sup>103</sup> . Bu qonunlar tadbirkorlarga moliyaviy yuklarni kamaytirishga yordam beradi. Mehnat munosabatlari: Mehnat qonunchiligidagi tadbirkorlarni ishchilar bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi, barqaror ish faoliyatini olib borish, ishchilar qonuniy huquqlarini tartibga soladi va ish joyidagi sharoitlarni barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.
4.	Huquqiy muammolar	Sud tizimidagi qiyinchiliklari: Kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik faoliyatidagi subyektlar sudga murojatida ba’zida turli qiyinchiliklarga duch kelishmoqda, bu holatda ularning ish faoliyatida turli hil muammolar kelib chiqishi mumkin. Byurokratik to‘sifalar: Davlat qonunchilik boshqaruvi organlari tomonidan belgilangan byurokratik to‘sifalar tadbirkorlarning ish faoliyatini cheklaydi. Bunday masalalarni bartaraf etishda davlatning roli yuqori.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir. Davlat tomonidan taqdim etilgan huquqiy kafolatlar va qonunchilik bazasi tadbirkorlarga o‘z faoliyatlarini amalga oshirishda qulay sharoit yaratadi. Biroq, mavjud muammolarni hal etish uchun yanada samarali choralar ko‘rish zarur. Qonunda belgilangan turlicha mezonlar mavjud.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning huquqiy ta’rifi mamlakat va sanoat bo‘yicha farq qiladi. AQShda kichik biznes ma’muriyati sanoat asosida kichik biznes hajmi standart hajmini o‘rnatadi, biroq odatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchilar soni besh yuzdan kam xodimga ega va yillik tushumlari 7,5 million dollardan kam deb belgilangan. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida odatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida ellikdan kam ishchiga ega bo‘lish belgilangan. Avstraliyada kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik faoliyatida o‘n besh kishidan oshmagan holda faoliyat yuritish belgilangan. Bundan ko‘rinib turibdiki y kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik subyekti deyish uchun ishchilar soni, aylanma mablag‘lar va umumiy

<sup>102</sup><https://lex.uz>

<sup>103</sup>[https://www.norma.uz/oz/parlament\\_habarları](https://www.norma.uz/oz/parlament_habarları)

kapitalni miqdoriga qarab belgilanadi. Bunda y ko'rsatkichlarni quydag'i jadvaldan tahlil qilishimiz mumkin.

**3-jadval<sup>104</sup>**

### Biznes hajmi ta'riflari (xodimlar soni bo'yicha)

	Australiya	AQSh	Kanada	Yevropa ittifoqi davlatlari	O'zbekiston
<b>Mikrofirmalar</b>	1-2	1-6	1-4	1-10	1-20
<b>Kichik</b>	3-15	7-250	5-99	11-50	21-100
<b>O'rta</b>	16-200	251-500	100-499	51-250	101-500
<b>Yirik</b>	201-500	501-1000	500<	251-1000	501<
<b>Korxona</b>	500<	1000<		1000<	

### XULOSA

Yuqorida keltirilgan jadvalda xodimlarni soniga qarab guruxlashtirilgan. Har bir mamlakatda biznes hajmi uchun ishlovchilar soni chegaralari farq qiladi. Masalan, AQShda kichik biznes uchun juda keng diapason mavjud, Yevropa ittifoqi davlatlarida esa bu chegaralar ancha tor. Har bir mamlakatning biznes hajmi ta'riflari uning iqtisodiy siyosati va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash strategiyasini aks ettiradi. Masalan, AQShda keng diapazonli kichik biznes ta'riflari tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan. O'zbekistonda mikrofirmalar, kichik va o'rta biznes uchun ishlovchilar soni boshqa mamlakatlarga nisbatan yuqori chegaraga ega. Bu, mamlakatning tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan yumshoqroq yondashuvini ko'rsatadi.

Yangi mezonlar korxonalarni ayrim kategoriyalarga bo'lishni tartibga solish imkoniyatini beradi. Bu soliqqa tortish bo'yicha imtiyozlarni belgilash, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq choralamni qabul qilish, respublika mintaqalarida kichik korxonalar tarmog'ini kengaytirish sohasida infratuzilmaviy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2024 yildagi 37-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-292-sonli qarori. 2023-yil, 4-sentabr
3. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010.
4. Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
5. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Yergashxodjayeva Sh.J. Marketing. –T.: TDIU -2010.

<sup>104</sup>Jadval muallif tomondan bajarilgan.

6. Salamov.I., Qudratov.T., Qudratova.I. Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik (Ma’ru zalar kursi)–Samarqand-2015
7. Burton.G. Tadbirkorlik va kichik biznesni boshqarish. ISBN 978-1-9789-2433-8 Library Press tomonidan. New York, NY 10001, AQSh
8. <https://lex.uz>
9. <https://www.norma.uz>
10. <https://www.stat.uz>
11. <https://www.gazeta.uz>